

I. SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonolari soni 3 942 taga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 229 ta yoki 6,2 foizga oshgan.


Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 776 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etilgan bo'lib, ularning 16,0 foizi Uchquduq tumani, 12,0 foizi Navoiy shahri, 11,9 foizi Karmana tumani, 11,5 foizi Xatirchi tumani, 11,1 foizi Zarafshon shahri hissalariga to'g'ri keldi.




2022- yil 1- oktabr holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonolari soni, birlikda

	<i>faoliyat yuritayotgan</i>	<i>shundan,</i>		<i>2022- yil yanvar- sentabr oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
Jami	3 942	32	3 910	776
Navoiy sh.	826	13	813	93
Zarafshon sh.	376	4	372	86
G'ozg'on sh.	198	1	197	44
Karmana t.	647	6	641	92
Konimex t.	140	1	139	48
Qiziltepa t.	433	3	430	73
Navbahor t.	292	3	289	68
Nurota t.	274	-	274	35
Tomdi t.	93	-	93	24
Uchquduq t.	177	-	177	124
Xatirchi t.	486	1	485	89

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2022- yil 1- oktabr holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2022- yil yanvar- sentabr)



2022- yil yanvar- sentabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 62 743,9 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 105,3 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 3 325,3 mlrd. soʻmlik isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar- sentabrga nisbatan oʻsish surʻati 106,9 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 1 358,4 mlrd. soʻmlik oziq-ovqat mahsulotlari, aroq-vino mahsulotlari va pivo, 1 966,9 mlrd. soʻmlik noziq-ovqat mollari (2021- yil yanvar- sentabrga nisbatan mos ravishda 106,2 foiz va 107,4 foiz) ishlab chiqarildi.



2022- yil yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati, % da)</i>
I. Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari boʻyicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	62 743,9	105,3
Togʻ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	8 621,9	123,7
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	8 196,0	123,3
Boshqa turdagi togʻ -kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	425,9	188,1
Qayta ishlash sanoati	50 669,9	102,2
<i>undan:</i>		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1 461,1	100,6
Toʻqimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1 735,3	90,4
Yogʻoch va poʻkak buyumlar, pohlol va toʻqish uchun materiallardan buyumlari, qogʻoz va qogʻoz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	84,5	128,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	8,2	111,9
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,9	159,9
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	4 340,3	96,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	6,5	41,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1 476,8	77,6
Metallurgiya sanoati	37 970,7	103,3

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)</i>
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2 306,4	112,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	130,2	99,4
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	135,4	110,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	526,6	3,9 m.
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	435,9	168,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	13,8	43,4
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	37,3	106,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3 415,3	124,6
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	36,8	90,2
II. Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish	3 325,3	106,9
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	1 358,4	106,2
nooziq-ovqat tovarlari	1 966,9	107,4

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi ulushi, foizda



Yanvar-sentabr oylarida isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 325,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 6,9 foizga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,3 foizni tashkil etdi.



Yanvar- sentabr oylarida isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (jami isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)

2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr
Ulushi , % da	Ulushi , % da
40,7	40,8
59,3	59,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	Nooziq-ovqat mahsulotlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Chaqiq tosh (sheben)	<i>tn.</i>	22 010,1	100,0
Qayta ishlash sanoati			
Ammoniy sulfat	<i>ming. tn. azot</i>	2,6	100,5
Natriy gidroksidi (kaustik soda)	<i>ming. tn.</i>	46,4	74,1
Kalsiy xlorid	<i>ming. tn.</i>	3,0	127,0
Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)	<i>ming. tn. azot</i>	229,3	117,5
Superfosfatlar	<i>ming. tn. P2O5</i>	1,7	128,4
Mochovina (karbamid)	<i>ming. tn. azot</i>	185,1	134,5
Suvsiz ammiak	<i>ming. tn</i>	593,1	119,6
Portlandsement	<i>tn.</i>	2 324 120,0	80,7
Sirka kislotasi	<i>tn.</i>	3 022,0	98,9
Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar	<i>tn.</i>	16 420,9	129,2
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	<i>tn.</i>	4 658,3	123,9
Yogurt	<i>tn.</i>	14,3	147,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming. tn.</i>	45,5	96,1
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g (buxanka)	<i>tn.</i>	222,7	62,0
Ishlov berilgan suyuq sut	<i>tn.</i>	446,0	74,8
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	<i>tn.</i>	50,2	97,3
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, tarkibida asal, tuxum, pishloq yoki mevalar bo'lmagan uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari	<i>tn.</i>	478,5	142,3



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2022- yil yanvar- sentabr oylarida 2 351,4 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

	<i>2021- yil yanvar- sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar- sentabr</i>
Loyihalar soni, birlik	200	265
Korxonalar soni, birlik	60	60
Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm	1 373 521,5	2 351 406,2
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	13 276,3	10 106,9
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	517	212







2022- yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

	<i>Sanoat mahsuloti</i>		<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da</i>
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati,) % da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	
Jami	62 743,9	105,3	3 325,3	106,9	6,7
Navoiy sh.	53 398,9	105,6	745,6	92,9	1,7
Zarafshon sh.	303,5	105,5	229,4	104,0	99,1
G'ozg'on sh.	49,8	108,4	20,3	104,3	67,4
Karmana t.	6 053,7	108,0	801,7	120,0	19,1
Konimex t.	433,9	116,8	75,8	104,4	36,6
Qiziltepa t.	1 031,3	100,8	435,3	109,4	45,3
Navbahor t.	545,4	107,0	283,7	118,2	48,5
Nurota t.	238,4	107,5	215,7	114,4	100,0
Tomdi t.	34,9	105,8	32,1	105,0	100,0
Uchquduq t.	226,8	118,5	77,7	103,0	100,0
Xatirchi t.	427,3	102,6	408,0	103,2	99,6

Uchquduq tumanida (2021- yilning yanvar- sentabr oyiga nisbatan 118,5 foiz), Konimex tumanida (116,8 foiz), G'ozg'on shahrida (108,4 foiz), Karmana tumanida (108,0 foiz) hamda Nurota tumanida (107,5 foiz) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) viloyat ko'rsatkichdan (105,3 foiz) sezilarli darajada oshganligini izohlashimiz mumkin.

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Karmana tumanida (2021- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 120,0 foiz), Navbahor tumanida (118,2 foiz), Nurota tumanida (114,4 foiz) hamda Qiziltepa tumanida (109,4 foiz) sezilarli darajada oshdi.






2022- yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsulotlari, ming so'm		Xalq iste'mol mollari, ming so'm	
	2021	2022	2021	2022
Jami	52 564,7	60 215,6	3 046,6	3 191,3
Navoiy sh.	310 007,1	349 528,9	5 414,1	4 880,2
Zarafshon sh.	2 773,4	3 532,0	2 587,9	2 669,6
G'ozg'on sh.	4 573,1	5 529,7	2 201,8	2 259,0
Karmana t.	40 533,6	45 326,6	5 149,6	6 002,7
Konimex t.	2 045,1	11 727,9	1 994,9	2 048,5
Qiziltepa t.	6 193,8	6 547,3	2 568,3	2 763,5
Navbahor t.	3 840,9	4 638,9	2 078,5	2 413,2
Nurota t.	2 227,9	2 736,4	2 197,8	2 475,7
Tomdi t.	1 970,0	2 241,9	2 007,1	2 061,7
Uchquduq t.	3 138,8	5 869,3	1 991,1	2 010,9
Xatirchi t.	1 864,1	2 061,1	1 943,8	1 968,1


2022- yil yanvar-sentabr



2022- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so‘m



2022- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so‘m



2022- yil yanvar- sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumaniga (6 002,7 ming so'm), Navoiy shahriga (4 880,2 ming so'm), Qiziltepa tumaniga (2 763,5 ming so'm), Zarafshon shahriga (2 669,6 ming so'm), Nurota tumaniga (2 475,7 ming so'm), Navbahor tumaniga (2 413,2 ming so'm) va G'ozg'on shahriga (2 259,0 ming so'm) to'g'ri keladi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 333,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.



O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 6,9 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati), % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Jami	62 743,9	105,3	4 333,9	6,9
Navoiy sh.	53 398,9	105,6	847,9	1,6
Zarafshon sh.	303,5	105,5	95,7	31,5
G'ozg'on sh.	49,8	108,4	0,4	0,9
Karmana t.	6 053,7	108,0	2 852,6	47,1
Konimex t.	433,9	116,8	1,0	0,2
Qiziltepa t.	1 031,3	100,8	499,6	48,4
Navbahor t.	545,4	107,0	29,3	5,4
Nurota t.	238,4	107,5	6,1	2,6
Tomdi t.	34,9	105,8	-	-
Uchquduq t.	226,8	118,5	0,3	0,1
Xatirchi t.	427,3	102,6	1,0	0,2

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da


2021- yil yanvar- sentabr

2022- yil yanvar- sentabr



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 4 224,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,7 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. soʻm



2022- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100 foiz), Tomdi (100,0 foiz), Nurota (100,0 foiz), Xatirchi (99,6 foiz), Zarafshon shahri (99,1 foiz), G'ozg'on shahri (67,4 foiz), Qiziltepa (45,3 foiz), Navbahor (48,5 foiz), Konimex (36,6 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy shahrida (1,7 foiz), Karmana tumanida (19,1 foiz) kuzatildi.

Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari - asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Mahalliyashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).